



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№12
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,
2-dekabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda psixologik motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalari	26
<i>Xuseynova Abira Amanovna</i>	
Pragmalinguodidactic Principles in Teaching English for Philologist Students and their Application in Intercultural Communication.....	31
<i>Arzieva Bibi-Sanem Aynazarovna</i>	
Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan biologiya o'quv materiallarini loyihalash, joriy etish va samaradorligini baholash.....	35
<i>Abdurasulova Gulrux Habibullayevna</i>	
Oligofreniya holatida neyropsixologik tashxislar qo'llanilishining umumiy masalalari	40
<i>Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li, Xojaliyeva Sarvinoz Elyorjon qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ...	44
<i>Asatova Dildora Aslamovna</i>	
Ingliz tili o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishda autentik manbalarning roli.....	49
<i>Bekmuratova Nargiza Arislanbayevna</i>	
Insuldan keyingi nutqni tiklashda logopedik reabilitatsiya va nevrologik muolajalar integratsiyasi	52
<i>Boltaboyeva Xurshida Sharofiddinovna</i>	
The Concept of Symbols in Linguoculturology	56
<i>Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi</i>	
Buyuk ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalarning vujudga kelishi.....	59
<i>Mirxalilova Nargiza Akbarovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarni bolalarni nutqini o'stirishga bo'lgan kasbiy-pedagogik tayyorgarligini o'stirish	63
<i>Mitaliboyeva Dildora</i>	
Koxlear implantli bolalarning eshituv–nutqiy faolligini oshirishda differensial yondashuv asosida korreksion-pedagogik ish	66
<i>Nartayeva Shahoza Yulchibayevna</i>	
Fasilitatsion yondashuv asosida kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari.....	71
<i>Normatova Nilufar Komilovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari (XIX–XXI asrlarda).....	76
<i>Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya</i>	
Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali olimpiya ta'limini rivojlantirish: yoshlar orasida axloqiy va jismoniy madaniyatni oshirish	80
<i>Qodirov Jurabek Mamatsimonovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sun'iy intellekt bilim va savodxonligini rivojlantiradigan innovatsion jismoniy-interaktiv o'yinlar: pedagogik model.....	83
<i>Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi</i>	
“Sab' ai sayyor” asarida qo'llangan onomastik birliklar haqida mulohazalar	87
<i>Gadayev Oybek Yaxshiboyevich, Ravshanova Sharbatoy Rahmatilla qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoq shifokorlarining masofaviy konsultatsiyalari shaxs psixikasi va salomatligiga ta'siri	91
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, Ravshanova Zarnigor Daminovna</i>	
Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish.....	95
<i>Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li</i>	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish	99
<i>Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar motorikasini rivojlantirishning standart modeli	102
<i>Sirojiddinova Xamidaxon Xasanboy qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabat kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	106
<i>Turg'unova Gulnoza Muhammadjonovna, Xodjiyeva Mahliyo</i>	



Shaxsdagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi korrelyatsion bog'liqliklar tahlili	109
Xusanov Samariddin Maxmadaminovich	
Auditoriyadan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni art-terapiya yordamida tashkil etish asoslari	112
Yarashev Jo'rabek To'rayevich	
Формирование творческого мышления школьников на уроках музыки	117
Габдульманова Ильнура Минисламовна	
Теоретико-методологические основы коллаборативного обучения, кооперативных подходов и интерактивных педагогических методов	119
Жураева Мафтуна Бахтиёр кизи	
Педагогическое колесо как инструмент формирования цифровой компетентности будущих педагогов дошкольного образования.....	124
Уразова М. Б., Усманова У. Б.	
Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа–махалля" в Узбекистане ..	130
Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли	
Педагогические условия формирования языковой грамотности у учащихся с тяжелыми нарушениями речи.....	135
Юсупова Зулайхо Бахром кизи	



INGLIZ TILI O'QISH KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA AUTENTIK MANBALARNING ROLI

Bekmuratova Nargiza Arislanbayevna
 Qoraqalpoq davlat universiteti, dotsent v.v.b, PhD.

Annotatsiya: Ushbu maqola Qoraqalpoq davlat universiteti (QDU) talabalari misolida ingliz tilidagi o'qish kompetensiyasini oshirishda autentik materiallardan foydalanishning amaliy strategiyalarini tadqiq etadi. Eksperimental yondashuv asosida Skimming, Scanning va Tanqidiy o'qish strategiyalarini joriy etishning samaradorligi baholandi. Natijalar autentik matnlar motivatsiyani oshirish va haqiqiy dunyo tilidan foydalanishda sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: autentik materiallar, o'qish kompetensiyasi, Skimming, Scanning, tanqidiy o'qish, QDU, EFL, strategiyalar.

Abstract: This article examines practical strategies for using authentic materials to improve English reading competence based on the example of students of Karakalpak State University (KSU). Based on the experimental approach, the effectiveness of implementing Skimming, Scanning, and Critical Reading strategies was assessed. The results showed that authentic texts have a significant positive effect on increasing motivation and using the language of the real world.

Key words: authentic materials, reading competence, skimming, scanning, critical reading, KSU, EFL, strategies.

Аннотация: В данной статье исследуются практические стратегии использования аутентичных материалов в повышении компетенции чтения на английском языке на примере студентов Каракалпакского государственного университета (КГУ). На основе экспериментального подхода была оценена эффективность внедрения стратегий Skimming, Scanning и Critical Reading. Результаты показали, что аутентичные тексты оказывают значительное положительное влияние на мотивацию и использование языка реального мира.

Ключевые слова: аутентичные материалы, читательская компетенция, скимминг, сканирование, критическое чтение, КГУ, EFL, стратегии.

KIRISH

Global axborot almashinuvi kuchaygan davrda oliy ta'lim muassasalari talabalarni lingvistik va madaniy kompetensiyaga ega mutaxassis sifatida tayyorlashi zarur. Ingliz tilini o'qitishda o'qish kompetensiyasi muhim bo'lib, u grammatik bilimlar bilan birga tanqidiy fikrlash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy metodika talabalarni passiv tinglovchidan strategik o'quvchiga aylantirishni maqsad qiladi. An'anaviy darsliklar buni to'liq ta'minlay olmagani uchun gazeta matnlari, podkastlar, filmlar kabi autentik materiallar real til muhitini sinfga olib kirib, talabalar madaniy bilimlarini ham kengaytiradi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – autentik materiallarni (asosan raqamli matnlarni) integratsiya qilishga asoslangan o'qish strategiyalarining (Skimming, Scanning, Tanqidiy o'qish) QDU talabalarining o'qish kompetensiyasini shakllantirishga ta'sirini eksperimental usulda baholashdan iborat. Bu tadqiqot an'anaviy ta'lim muhitida autentik resurslarning pedagogik ahamiyatini amaliy jihatdan asoslashga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Autentik materiallar tushunchasi til o'qitish metodikasida keng muhokama qilinadi. Harmer (1991) autentik matnlarni til o'rganuvchilar uchun emas, balki ona tili egalari uchun real hayotiy kommunikativ maqsadlarda yaratilgan har qanday matn (yozma yoki og'zaki) sifatida aniqlaydi ^[1]. Shunga o'xshash ravishda, Nunan (1989) autentik materiallarni til o'qitish maqsadida maxsus ishlab chiqarilmagan har qanday resurs sifatida qabul qiladi ^[2].

Autentik materiallardan foydalanishning nazariy asoslari ularning o'quvchilar motivatsiyasini oshirish qobiliyatiga borib taqaladi. Gilmore (2007) va Guariento va Morley (2001) kabi tadqiqotchilar autentik matnlar nafaqat til bilimini oshirish, balki o'rganuvchining qiziqishini orttirib, sinfga olingan bilimlarni real dunyo tili bilan bog'lashga yordam berishini ta'kidlaydilar ^[3].

Autentik matnlar darsliklardan farqli o'laroq, yuqori chastotali va past chastotali so'zlarning aralash tarqalishiga ega bo'lib, bu o'quvchilarni kengroq lug'at doirasiga olib chiqadi. Ushbu materiallar real hayotda ishlatiladigan til namunasini taqdim etishi sababli, ular tanqidiy fikrlash, tushunish va inferensiya qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan haqiqiy lingvistik tuzilmalarga kirishni ta'minlaydi. Qoraqalpog'iston ta'lim tizimining o'ziga xos sharoitlari autentik materiallarning ahamiyatini yanada oshiradi.

Nukus maktablarida o'tkazilgan tahlillar an'anaviy darsliklarning talabalar darajasiga mos kelmasligi va o'qituvchilar tomonidan zamonaviy yordamchi vositalar yetarlicha qo'llanilmasligi kabi tizimli muammolarni ko'rsatgan. Bu sharoitda oliy ta'lim talabalarining o'qish kompetensiyasini faqat an'anaviy darslik metodlari bilan yuqori darajada rivojlantirish qiyin kechadi. Shu bilan birga, Qoraqalpoq davlat universiteti (QDU) talabalar misolida o'tkazilgan tadqiqotlar talabalarining o'ziga xos o'rganish moyilliklarini aniqladi. QDU talabalar ijtimoiy tarmoqlardan (xususan, YouTube va Telegram) ingliz tilidagi kontentni iste'mol qilishda faol foydalanadi, bu esa ularning raqamli autentik materiallarga yuqori darajada moyilligini ko'rsatadi. Ular video materiallarni, ayniqsa qisqa videolarni afzal ko'radilar. Bu tendensiya shuni ko'rsatadiki, mavjud institutsional cheklovlarni chetlab o'tib, ta'lim samaradorligini oshirish uchun talabalarining ushbu raqamli materiallarga bo'lgan ichki motivatsiyasini to'g'ri o'qish strategiyalari bilan birlashtirish zarur. Bu jarayon talabalarni matnni faqat ma'lumot manbai sifatida emas, balki o'z madaniy bilimlari va shaxsiy tajribalari bilan bog'lash mumkin bo'lgan faol maydon sifatida qabul qilishga undaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot kvantitativ eksperimental dizayn asosida olib borildi. Tadqiqotda avvalgi tadqiqotlarda samaradorligi tasdiqlangan Pre-test va Post-test metodikasi qo'llanilib, natijalarni statistik taqqoslash imkoniyatini beruvchi nazorat guruhi ishtiroki ta'minlandi. Bunday dizayn joriy qilingan strategik yondashuv va o'qish kompetensiyasi o'rtasidagi sabab-oqibat aloqasini aniqlashda yuqori ishonchlilikni ta'minlaydi. Tadqiqot obyekti sifatida QDUning Yuridika fakulteti talabalar tanlab olindi. Jami 50 nafar, til darajasi B1–B2 oralig'ida bo'lgan talabalar ishtirok etdi. Ular tasodifiy ravishda ikki teng guruhga ajratildi: Eksperimental guruh (EG, N=25) va Nazorat guruhi (NG, N=25). Tadqiqotda uch turdagi asboblar qo'llanildi:

O'qish kompetensiyasi testlari: Pre-test va Post-testlar talabalarining o'qish tezligi, tushunish darajasi, so'z boyligi va inferensiya qilish (matndan xulosa chiqarish) qobiliyatlarini o'lchashga qaratilgan edi. Bu testlar talabalarining matnni turli kontekstlarda anglash qobiliyatini baholash uchun maxsus tuzildi.

So'rovnoma: Talabalarining autentik materiallarga nisbatan munosabatini, o'qish motivatsiyasini va ular ingliz tilini o'rganish maqsadida qaysi raqamli platformalardan (masalan, YouTube, Telegram) foydalanish chastotasini aniqlash uchun so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma autentik matnlarning ularning o'rganishini qiyinlashtirishi yoki osonlashtirishi haqidagi fikrlarini ham o'z ichiga oldi.

Eksperimental guruhda mashg'ulotlar 13 hafta davomida olib borildi. Darslar asosan raqamli autentik matnlar (onlayn yangiliklar, akademik maqolalar, ijtimoiy tarmoq kontentlari) asosida tashkil etildi. Materiallarni tanlashda G.A. Asilova ta'kidlaganidek, materialning maqsadga muvofiqligi, tushunariligi, qiziqarliligi va dolzarbligi kabi mezonlarga qat'iy rioya qilindi^[3]. Autentik materiallar yuqori kognitiv yukni keltirib chiqarishi mumkinligi sababli, ularni joriy etishda Scaffolding (pedagogik yordam) mexanizmlari qo'llandi. Bu yondashuv matnni oldindan kontekstualashtirishni, qiyin leksik tuzilmalar bo'yicha yordamni taklif qilishni va materiallarni talabalarining darajasiga moslashtirishni o'z ichiga oldi. Ushbu yordam autentik materiallarning real-dunyo qiymatini saqlab qolgan holda, talabalar uchun o'rganish jarayonini yengillashtirishga xizmat qildi. To'plangan kvantitativ ma'lumotlar statistik dasturlar yordamida tahlil qilindi. Guruhlar o'rtasidagi Post-test ballarining farqini statistik jihatdan aniqlash maqsadida mustaqil namunali T-test qo'llanildi. Statistik tahlil joriy qilingan strategiyalarning samaradorligi haqida xulosalar chiqarish uchun asos bo'ldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pre-test natijalari tahlili Eksperimental guruh va Nazorat guruhi o'rtasida o'qish kompetensiyasi bo'yicha o'rtacha ballar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatsiz farqni ko'rsatdi. Bu esa ikki guruhning til darajasi boshlang'ich bosqichda bir xil ekanligini va keyinchalik Post-testda kuzatiladigan har qanday farq faqat eksperimental aralashuv (autentik strategiyalarni qo'llash) natijasi ekanligini isbotlash uchun asos yaratdi.

So'rovnoma natijalari QDU talabalarining autentik resurslarga nisbatan yuqori ijobiy munosabatini aniqladi. Talabalarining aksariyati (80% dan ortig'i) autentik matnlardan foydalanish orqali o'qishga ko'proq qiziqish bildirishini tasdiqladi. QDU talabalar til o'rganish uchun eng ko'p YouTube'dan foydalanishlarini ma'lum qildi, bu esa ularning raqamli kontentga bo'lgan tabiiy moyilligini ko'rsatadi. Bu topilma shuni anglatadiki, autentik materiallar darslik cheklovlaridan tashqarida bo'lgani uchun talabalarining ichki motivatsiyasini kuchaytiradi^[4]. Motivatsiyaning bunday ortishi autentik materiallarni faqat lingvistik emas, balki madaniy mahsulot sifatida qabul



qilishga yordam beradi, bu esa o'qish kompetensiyasini rivojlantirishdagi an'anaviy zerikish to'siqlarini samarali ravishda bartaraf etadi.

13 haftalik eksperimental davr yakunida o'tkazilgan Post-test natijalari EG va NG o'rtasida o'qish kompetensiyasining statistik jihatdan sezilarli farqlanishini ko'rsatdi ($p < 0.01$). Eksperimental guruhning o'rtacha ballari o'sishi Nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori bo'ldi. Bu natijalar autentik materiallarga asoslangan o'qish strategiyalarining an'anaviy yondashuvlarga qaraganda talabalarning til o'rganish natijalariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Autentik matnlar orqali ishlash talabalarning so'z boyligini oshirish, xulosa chiqarish va tanqidiy tushunish ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilashda muhim rol o'ynadi. Eksperimental guruhda qo'llanilgan uch asosiy strategiya autentik matnlar bilan ishlashda o'zaro bir-birini to'ldiruvchi mexanizmlar sifatida ishlaydi.

QDU talabarlari raqamli autentik materiallar (onlayn yangiliklar va boshqa veb-resurslar) bilan ishlashda tezkor ma'lumot olish strategiyalarini samarali qo'llashni o'rgandilar. Skimming matnning umumiy mazmunini tezda tushunish uchun qo'llanadi, bu ayniqsa ko'p ma'lumotni qisqa vaqt ichida ko'rib chiqish kerak bo'lganda muhimdir. Scanning esa matn ichidan aniq detallarni (sana, ism, atama) topish uchun xizmat qiladi. Autentik materiallar yuqori kognitiv yukni keltirib chiqarishi mumkinligini hisobga olsak, ushbu tezkor o'qish texnikalari murakkab matnni to'liq o'qimasdan, uning asosiy qismlarini tezda o'zlashtirish orqali talabalarga kognitiv yukni boshqarishda yordam beradi ^[5].

Autentik yangilik maqolalari va jurnallar bilan ishlash talabalarning yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini talab qildi. Tanqidiy o'qish strategiyalari (tahlil qilish, sintez qilish va baholash) matndagi ma'lumotlarga chuqur yondashishni ta'minladi. Tanqidiy o'qish faoliyati o'rganuvchilarga matn mazmunini o'zining ijtimoiy, madaniy va shaxsiy qadriyatlarini bilan bog'lash imkoniyatini beradi. Bu shuni anglatadiki, talabalar nafaqat tilni, balki madaniy-ijtimoiy kontekstni ham o'rganib, matnni faol ravishda talqin qilishni o'rganishadi, bu esa ularning passiv o'quvchilar bo'lish haqidagi oldingi qarashlarga zid keladi ^[6].

Strategik autentik materiallardan foydalanish modelini QDU kontekstida muvaffaqiyatli amalga oshirishda materiallarning to'g'ri tanlanishi va o'quv yordamining taqdim etilishi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Autentik matnlar ona tilidagi madaniy bilimlarni talab qilishi mumkin, bu esa talabalar uchun qiyinchilik tug'diradi. Shu bois, pedagogik yondashuv talabalarning o'z madaniyati va shaxsiy tajribasi bilan bog'lashga (contextualizing) yordam berishi kerak. Bunda faqat tilga emas, balki mazmunga asoslangan innovatsion pedagogik yondashuvlar muhimdir ^[7].

XULOSA

Ushbu eksperimental tadqiqot Qoraqalpoq davlat universiteti talabarlari misolida autentik manbalardan strategik foydalanish ingliz tilidagi o'qish kompetensiyasini shakllantirishda muhim va ijobiy rol o'ynashini ko'rsatdi. Eksperimental guruhning o'qish tushunish va inferensiya qilish ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli darajada yuqori natijalari autentik materiallarning an'anaviy o'qitish metodologiyalaridan ustunligini tasdiqladi. Tadqiqot QDU talabalarining yuqori motivatsiyasini autentik raqamli kontent (YouTube, onlayn yangiliklar) bilan samarali bog'lash mumkinligini aniqladi. Skimming, Scanning va tanqidiy o'qish strategiyalarini autentik matnlar orqali joriy etish orqali talabalar XXI asrning talablariga mos keladigan strategik o'quvchilarga aylanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Pedagoglarga autentik matnlarni tanlashda ularning dolzarbligi, tushunariligi va o'quvchilarning madaniy tajribasiga mos kelishini ta'minlash tavsiya etiladi. Kelajakdagi tadqiqotlar QDU kontekstida sun'iy intellektga asoslangan tahlil va adaptiv platformalarning autentik materiallar strategiyalari bilan uyg'unligini o'rganishga qaratilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Harmer, J. (1991). *The Practice of English Language Teaching*. London: Longman.
2. Nunan, D. (1989). *Designing Tasks for the Communicative Classroom*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Asilova, G. A. (2023). O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallarni tanlash tamoyillari. *O'zbekistonda xorijiy tillar*, № 6 (53), B. 172–185.
4. Sultonmurotova, S. M. (n.d.). Malakali iqtisodchi rahbarlarni tayyorlash jarayonida ingliz tili o'qitish metodlaridan samarali foydalanish yo'llari. *scientific-jl.com*.
5. Mohammed, S. (2021). Authentic materials in EFL context: Benefits, challenges and ways to overcome them. *Frontiers in Education*.
6. Ziyodullayev, A. K., et al. (2024). The role of social media in enhancing English language skills: A case study of Karakalpak State University students. *ResearchGate*.
7. Wallace, K. (2017). Using news articles to build a critical literacy classroom in an EFL setting. *Journal of College Reading and Learning*.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.